



**“ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA  
ILMIY TADQIQOTLAR:  
MUAMMOLAR, YUTUQLAR,  
INNOVATSIYALAR”**

**xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

**2023 yil 19-20 may**

**Buxoro**

**“Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman to`plami // Buxoro, 2023-yil 19-20-may. – 486 b.**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli Qarorlarida belgilangan tadbirlar ijrosini ta’minlash maqsadida 2023-yilning 19-20 may kunlari Buxoro davlat universitetida **“Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar”** mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman o‘tkaziladi.

Mazkur konferensiya to‘plamida bir yuz ellikdan ortiq maqolalar jamlangan.

### **Tahrir hay’ati:**

Xamidov O.X. – Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor;  
Rasulov T.H. – Fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor;  
Barotov Sh.R. – Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Karimova V.M. – Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Jabborov A.M. – Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Nishonova Z.T. – Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Huseynova A.A. – Falsafa fanlari doktori, professor;  
Abdullayeva B.S. – Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Akramova F.A. Psixologiya fanlari doktori, professor;  
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori, dotsent;  
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori, dotsent;  
Nazarov A.M. – psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), professor;  
Usmanova M.N. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
Jumayev U.S. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
Ostanov Sh.Sh. – psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;  
Rustamov Sh.Sh. – psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

**Koordinatorlar: Nazarov A.M., Usmanova M.N., Ostanov Sh.Sh.**

*Maqolalarning to‘g‘ri va aniqligiga mualliflar mas’uldir.*

© **Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar**

## Уважаемые гости и участники!!

Я рад приветствовать вас на международной научно-практической конференции **«Научные исследования в современной психологии: проблемы, достижения, инновации»**, в которой принимают участие ведущие ученые и специалисты Узбекистана, России, Украины, Казахстана, Кыргызстана, исследующие позитивную природу современного человека и условия оптимизации позитивного функционирования личности.

В настоящее время мы являемся свидетелями всё возрастающей актуальности психологии как науки, как сферы жизни, в которую включён каждый человек современного общества. Искусство жить в сложном и динамичном мире требует от нас умения заглянуть за грань очевидного и прикоснуться к глубинам человеческой психики.

За последние годы психология как наука сделала большой шаг вперед. В последние годы наблюдается активное развитие психологии как науки, академической и прикладной, обусловленное многообразием теоретических и практических задач, встающих перед нею. В нашей стране интерес к психологии огромен, причем практически во всех отраслях современного общества: образовании, политике, медицине, спорте, экологии, искусстве, бизнесе и др. Конечно, способствуя всему этому положительному сдвигу, вырос и круг проблем психологии.

Современная психология в Узбекистане находится на этапе становления и определения приоритетов будущего развития. В данной связи особую актуальность приобретает научная и инновационная деятельность ученых. Обращение исследователей к актуальным проблемам общества, в котором они осуществляют свою изыскательскую деятельность, поиск ответа на злободневные вопросы является неотъемлемым условием становления их научной культуры.

Узбекская земля дала стране немало блестящих ученых - психологов, которые приумножили ее славу в этой сегодня популярной и значимой в мире сфере человеческого познания. Здесь родились, получили специальное образование и сложились как профессиональные психологи - профессора: Э.Г. Гозиев, Г.Б. Шоумаров, А.С.Бегматов, Ш.Р. Баратов, А.М. Жабборов, Б.Р. Кадыров, В.М.Каримова, З.Т.Нишанова, Н.С.Сафаев, Б.М. Умаров и др.

Мы очень внимательно следим за успехами кафедры психологии нашего университета, которая получила разрешение на проведение конференции, видим её вклад в научную и общественную жизнь области и страны.

Во-первых, Журнал «PSIXOLOGIYA» стал первым профессиональным периодическим изданием психологов не только Узбекистана, но и заметным научным явлением на огромном географическом пространстве стран СНГ. Сегодня «PSIXOLOGIYA» не останавливается в своем развитии и способствует продвижению психологической науки и практики; растет его популярность не только в Узбекистане, но и за ее пределами. В апреле 2021 года журнал был зарегистрирован в (РИНЦ - Российский индекс научного цитирования) и включен национальную библиографическую базу данных научного цитирования.

В университете открыт Специализированный Совет по присуждению ученой степени (PhD) по двум специальностям: 19.00.05. - Социальная психология. Этнопсихология. и 19.00.06. – Возрастная и педагогическая психология. Психология развития.

Преподаватели плодотворно сотрудничают с кафедрами психологии вузов России, Украины, Казахстана, Кыргызстана, а также со школой психологии Сассекского университета Великобритании.

Поэтому целью международной научно-практической конференции является обсуждение современных тенденций развития психологии, обмен опытом ведущих

специалистов стран ближнего и дальнего зарубежья по различным направлениям практической психологии, знакомство с новейшими методами исследования в области практической психологии, а также консолидация усилий психологов многих стран в решении актуальных задач науки и практики.

Беглый анализ заявленных секций: методология современной психологии, интегративная парадигма психологии, организация психологической службы, психология в образовании, психология в здравоохранении, психическое здоровье детей и подростков, современные психологические проблемы общественного развития, психология профессионального становления и реализации личности и т.п. позволяет убедиться, насколько разнообразнее стала тематика исследований, насколько вырос исследовательский потенциал, насколько возросла значимость решаемых практических задач. Все это говорит о том, что обмен научной информацией сейчас, как никогда важен. Именно это, прежде всего, учитывали организаторы конференции при её формировании.

Надеюсь, что данная конференция получится интересной, запоминающейся, позволяющей осознать всю глубину и масштаб социальных вызовов нового времени психологии, проанализировать результаты исследований, посвященных широкому кругу проблем,

Желаю всем участникам международной научно-практической конференции плодотворной работы, здоровья, мира и добра!

**Хамидов Обиджон Хафизович** – ректор БухГУ, доктор экономических наук,  
профессор

## **I-SHO`BA.**

# **ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA**

# **METODOLOGIYASI**

munosabatlarini tadqiq qilgan, Pol Boennen er-xotin ajralishini amalga oshiruvchi bosqichlarni izohlagan, YE.Burgess, P.Vollin, L.Terman va M.Odemalar bir qator tajribalarga tayanib er-xotinlikdan qoniqishda sheriklarga xos sifatlarning turlarini qayd etganlar, Z.B.Sikevich va Y.A.Possellar millati bir xil yoki har xil bo'lgan kelin-kuyovlarda oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganganlar. G.V. Lagonda nikoh oldi kutish nazariyasi (orzu-havas natijalarini kutish)ni oila qurilgandan keyingi real hayot bilan qanchalik mos kelishini atroflicha o'rganishga uringan.

Guvohi bo'lganimizdek, chet el psixologlari tomonidan oila muammolarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ancha salmoqli va keng qamrovlidir. Biz ushbu tadqiqotlar natijasida erishilgan yutuqlarga yuqori baho bergan holda, bu ilmiy dalillar milliy, madaniy, an'anaviy, hududiy va gender xususiyatlariga ko'ra o'zbek oilalari uchun to'la taalluqli deya olmaymiz.

Mamlakatimiz psixolog olimlari (G'.B.Shoumarov, E.G'oziyev, V.M.Karimova, A.M.Jabborov, U.B.Shamsiyev, Z.B.Rasulova, M.A.Utepbergenov, N.A.Sog'inov, S.A.Oxunjonova, T.M.Adizova, E.Usmonov, M.Fayziyeva, N.Salayeva, F.R.Ro'ziqulov, H.U.Abdusamatovlar) tomonidan oilaviy hayot psixologiyasi, yoshlarni oila hayotiga tayyorlash, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi o'zaro munosabatlar, undagi ziddiyatlar, ajralishlar va uning oqibatlarini o'rganish sohasida bir qator nazariy va amaliy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari olib borilganligini e'tirof etishimiz mumkin.

Biroq, haligacha yoshlar orasida oila hayotiga muayyan darajada tayyor emaslik, ularda shakllangan oila hayoti haqidagi tasavvurlarning real hayotga mos kelmaslik holatlari oila-nikoh munosabatlarining beqarorlashuviga, ajralishlar sonining oshib borishiga, oilada er-xotin o'rtasidagi munosabatlarda ziddiyat va keskinliklarning kuchayib borishiga sabab bo'layotganligi, shunga ko'ra, yosh kelin-kuyov o'rtasidagi sog'lom psixologik munosabatlarni ta'minlashning ijtimoiy-etnik asoslarini aynan o'zbek milliy-madaniy muhiti shart-sharoitlari ta'siri nuqta nazaridan o'rganish zarurligini taqozo etmoqda.

#### **Adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev SH.M. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. 2017yil 15 iyun.
2. Abdurauf Fitrat. Oila. – T.: "Ma'naviyat" 2000. -112b
3. Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. –T.: "Yangi asr avlodi". 2007. -144b

## **VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINI OLDINI OLISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK SABABLARI**

*Barnoyeva Yulduz Rasulovna,*

Buxoro davlat universiteti magistri

Ilmiy rahmat *Elov Ziyodullo Sattorovich*

psixologiya va sotsiologiya kafedrasida dotsenti, Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**Annotatsiya.** Maqolada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish, voyaga yetmaganlarning jinoyat ko'chasiga kirib qolishiga sabablar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek ushbu jarayonni o'rganish bilan bog'liq holatlar, olimlarning turli qarashlariga ham e'tibor qaratilgan. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablari, ularni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlari, latent jinoyatchili haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** jinoyat, huquqbuzarlik, voyaga yetmaganla, latent, buzulish, inson huquqlari, ehtiyotsizlik, turli salbiy oqibatlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan bolalar haq-huquqlarini himoya qilish, ularni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash, voyaga yetmagan bolalarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish va ularning yuqori darajada ta'lim-tarbiya olishini har tomonlama ta'minlash borasida izchil hamda tizimli ishlar olib borilmoqda.

Bu haqda so'z borganda, bugungi kunda joriy yilning 3-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Shu o'rinda huquqni muhofaza qiluvchi targ'ibot organlari o'smir yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, balki jinoyatchilikning oldini olish, profilaktik chora-tadbirlar ko'rishga e'tiborni kuchaytirdilar. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va ularning sodir etilishiga sharoit tug'diruvchi vaziyatlarni bartaraf qilish davlat va jamiyat oldida turgan asosiy muammolardan biri sanaladi. Chunki voyaga yetmagan shaxslarning jinoyat sodir etishlari kelgusida ularning retsivist jinoyatchi bo'lish ehtimolini oshiradi hamda bu holat mamlakatning kelajakdagi taraqqiyotiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. Umumiy jinoyatchilikdan farqli ravishda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi mamlakatning kelgusidagi taqdiri bilan bog'langan bo'lib, ushbu muammoga bugungi kunda alohida e'tabor bilan yondoshilmasa uning millat kelajagiga salbiy ta'siri ortib ketishi mumkin.

Ma'lumotlarga ko'ra, poytaxtimizda o'tgan davr mobaynida 185 nafar voyaga yetmagan shaxsga nisbatan 125 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilgan. Shundan 48 nafari ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, 59 nafari uncha og'ir bo'lmagan, 67 nafari og'ir va 11 nafari o'ta og'ir jinoyatlar sodir etishgan. Ularning 182 nafari qasddan, 3 nafari esa ehtiyotsizlik oqibatida jinoyatga qo'l urganlikda ayblanmoqda. Olib borilayotgan profilaktik tadbirlarning ta'siri yetarli darajada emasligini - jinoyatlarning 17 tasi muqaddam sudlanganlar tomonidan sodir etilgani bilan izohlash mumkin. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish borasidagi tajriba shuni ko'rsatadiki, ushbu ijtimoiy salbiy illatga qarshi kurashning ilmiy asoslangan, puxta ishlangan va samarali choralarini qo'llamasdan turib, unga qarshi kurashda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlar xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya, Turkiya, Hindiston, Yaponiya kabi davlatlar tomonidan ham voyaga yetmagan yoshlar masalasiga chuqur e'tabor qaratilib, ularning haq-huquqlari birinchi ustuvor vazifasi belgilanmoqda. Jumladan, AQShdagi ko'plab bolalar jamg'armalari va tashkilotlari o'z faoliyatlarini voyaga yetmagan huquqbuzarliklarni kamaytirish va yo'q qilishga bag'ishlab, ushbu tashkilotlarning aksariyati voyaga yetmagan huquqbuzarlikning sabablari uchun vaqtini va pullarini mazkur turdagi ishlarni nazorat qilish uchun sarflaydi. Yaponiya tajribasida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarga nisbatan chora-tadbirlar tizimini urushdan keying va hozirgi kungacha bo'lgan davrni 4 bosqichga bo'lib amalga oshirgan. Natijada har bir bosqichdan keyin voyaga yetmaganlar jinoyatlar soni yildan-yilga kamayib borib, so'ngi 10 yillikda dunyo bo'yicha aholi soni nisbatidan kelib chiqib Yaponiya voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyatlar sodir etishning eng past ko'rsatkichi bo'yicha birinchilikni qo'lga kiritgan. Respublikamizda voyaga yetmaganlar va yoshlar tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish borasidagi islohotlarni tizimli bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasi belgilab olindi. Mazkur islohotlarning asosiy maqsadi voyaga yetmaganlar va yoshlarni kamol toptirish, iqtidorini to'la-to'kis ro'yobga chiqarish uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir. Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar aholining taxminan 45 foizini tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu yoshda insonning ongi, axloqi, ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Shu bois mamlakatimizda bunday yoshlarga e'tabor kuchaytirilgan. Konstitutsiyamizning 45-moddasida voyaga yetmaganlar huquqlari davlat himoyasida ekanligi belgilab qo'yilgan. Asosiy qonunning 64-moddasida esa ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanligi, davlat va jamiyat yetim bolalarni

va ota-onalari vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashi bolalarga yo'naltirilgan hayriya faoliyatini rag'batlantirishi qayd etilgan.

Avvalo voyaga yetmagan shaxs tuchunchasi va asosiy mazmuniga to'xtalib o'tsak, "Voyaga yetmagan" tuchunchasi bo'yicha, 1989-yil BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Bolalar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyada o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar voyaga yetmagan deb e'tirof etilgan. Shu o'rinda voyaga yetmaganlarni ikki toifaga 13 yoshdan 16 yoshgacha va 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

M.D.Lisov, V.S.Volkov va B.V.Sidirov kabi olimlar olib brogan izlanishlarga ko'ra, voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir qilinayotgan jinoyatchilikning asosiy qismini 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlar, ozchilik qismini esa 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan yoshlar sodir qilishar ekan.

Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablari va ularni keltirib chiqarayotgan shart-sharoitlarni quyidagi shaklda klassifikatsiya qilish mumkin:

1. Latent jinoyatchilik, ya'ni voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar turli sabablarga ko'ra huquqni muxofaza qilish idoralari tomonidan ro'yxatga olinmasligi ularning kelgusida og'irroq jinoyatlar sodir etishlari uchun zamin yaratmoqda.

2. Voyaga yetmaganlarning hech bir qiyinchiliksiz moddiy ne'matga ega bo'lishga intilishlari turli jinoyatlar sodir etishiga olib keladi.

3. Tarbiyasi og'ir va muqaddam sudlangan voyaga yetmaganlar bilan ichki ishlar idoralari voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olish guruhi nozirlari tomonidan profilaktika ishlari O'zbekiston Respublikasi IIVning talabi asosida olib borilmasligi ham turtki bo'lmoqda.

4. Voyaga yetmaganlar bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, ya'ni yoshlarni darsdan bo'sh vaqtlarida turli to'garaklarga jalb etishishlarida tegishli tashkilot va muassasalarida tashabbuskorlikning yetishmasligi o'rin tutib kelmoqda.

5. Voyaga yetmaganlarning bandligini ta'minlashda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, ya'ni voyaga yetmaganlarni ish bilan ta'minlash hamda mehnat qonunida belgilangan rag'batlarni yetarli darajada ta'minlanmasligi ham o'zining ta'sirini o'tkazmoqda. Bunda joylardagi o'qimasdan, ishlamasdan yurgan voyaga yetmaganlar sonini aniqlash bo'yicha ma'lumotlar muntazam monitoring yo'lga qo'yilmaganligi va amalga oshirilayotgan ishlar talab darajasida tashkil etilmayotganligi oqibati deb hisoblash mumkin.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik va huquqbuzarlikning oldini olish va profilaktikasini tashkil etish maqsadida yurtboshimiz tashabbuslari bilan 2021-yilning 2-aprel kuni PQ-5050-sonli qarori qabul qilindi va ichki ishlar organlarida 2000 ta shtat birligidan iborat voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlari lavozimi joriy etildi. Hozirda inspektor-psixolog lavozimida faoliyat yuritayotgan xodimlar har bir o'quvchi kesimida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlar orasida qonun buzilishlariga murosasiz munosabatda bo'lish hissini shakllantirish, muammoli o'quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishlash vazifalarini amalga oshirib kelmoqdalar.

#### **Adabiyotlar.**

1. Rustambayev M. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism). -T.: TDYI. 2005. -B.84.
2. Sattorova M. VoyagaYetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish. - T.: TDYI. 2006. - B.7.
3. Elov Z.S. O'Smirlik Davrida Shaxs Xulq-Atvorida Kuzatiladigan Reaksiyalarning Psixologik Ta'siri. "PSIXOLOGIYA" ILMIY JURNAL1, 2022. 27-29
4. Berdiyeva D.Sh., Elov Z.S. Psychological Reasons For Suicide Motivation In Adolescents With Deviant Behavior. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, educational, natural and social sciences scientific journal. Volume 2, Issue 2 February 2022. 1003-1009